

XADJAMURATOVA
Matlyuba Xashimovna

Alfraganus universiteti “Xalqaro munosabatlar va tarix” kafedrası dotsenti, tarix fanlari doktori (DSc)
xadjamuratova1964@gmail.com
Orcid ID: 0000-0003-2651-3392

YOSHLAR – JAMIYATNI KELAJAGINI TA’MINLOVCHI ASOSIY KUCH

Annatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning qonunchilik asoslarini ijtimoiy hayotga ta’siri masalasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, yoshlar, integratsiyalashuv, jamiyat kelajagi, qonun, davlat siyosati.

**МОЛОДЕЖЬ – ЗАЩИТА БУДУЩЕГО ОБЩЕСТВА
ОСНОВНАЯ СИЛА**

Аннотация. В данной статье описывается влияние законодательных основ социальной защиты молодежи на общественную жизнь Узбекистана в годы независимости.

Ключевые слова: глобализация, молодежь, интеграция, будущее общества, право, государственная политика.

**YOUTH – PROTECTION OF THE FUTURE OF SOCIETY
MAIN STRENGTH**

Abstract. This article describes the impact of the legislative framework for social protection of youth on the public life of Uzbekistan in the years of independence.

Keywords: globalization, youth, integration, future of society, law, public policy.

Kirish. Dunyoda aholi soni ortib, globallashuv jarayonlari tezlashmoqda. 2 milliarddan ziyod [1] yoshlarning zamonaviy jamiyatga integratsiyalashuvi hamda intellektual salohiyatining insoniyat taraqqiyotiga

ta’siri tahlil qilinsa, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning global va dolzarblik ahamiyati yanada ortadi. Bu borada BMT Bosh Assambleyasi tomonidan yoshlarga e’tiborni kuchaytirish, ularni ijtimoiy himoya qilish global mavzu

sifatida e'tirof etilib, huquqiy-tashkiliy tartibi belgilangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

A.Xakimov, R.Tolipov, A.Tatiboyev, Sh.Raxmatullaev, G.G'aniyeva, P.Xushboqov, D.Vasiyeva, B.Raximov, Z.Abdullayeva, F.Yormatov, M.Shamsiyeva, T.Xatamov, E.Tillayev, O.Topildiyev, H.Xoliqulova, Sh.Allaberganov, M.Boltabayeva, O'.Xoshimov, Sh.Raximov, A.Nurmatov, U.Elmuratova, N.Ismatova, Sh.Salimovlar kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan ilmiy tadqiqotlarni misol keltirish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishini bajarish davomida ilmiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Yoshlar siyosati BMT islohotlarining markazida bo'ldi. Masalan, 1965-yil BMT tomonidan "Yoshlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va xalqlar o'rtasidagi anglashuv g'oyalarini targ'ib qilish to'g'risida"gi deklaratsiya e'lon qilindi. Deklaratsiya qabul qilinganidan 20 yil o'tgach, ya'ni BMT 1985-yilni Xalqaro yoshlar yili deb e'lon qildi. BMT Bosh Assambleyasi 1999-yil dekabdagi 54/120-sonli rezolyutsiyasi orqali 12-avgustni – Xalqaro yoshlar kuni deb qabul qildi. 1995-yilda BMT Bosh Assambleyasining Butunjahon harakat dasturi ishlab chiqildi. Yoshlarni ijtimoiy himoya qilishning siyosiy asoslari ushbu dasturning 15 ta ustuvor yo'nalishida o'z aksini topdi. 1999-yilda Yoshlar yilining 25 yilligi nishonlanishi

bilan Bosh Assambleya 2010-yil 12-avgustdan boshlanadigan yilni yangi Xalqaro yoshlar yili deb belgiladi. 2015-yil 17-dekabrda "Yoshlar va inson huquqlari to'g'risida"gi rezolyutsiya qabul qilindi. 2019-yili yoshlar siyosati va dasturlari bo'yicha "Lissabon+21" deklaratsiyasi qabul qilindi.

O'zbekistonda ham yoshlarni jismonan sog'lom, ma'nan yetuk etib tarbiyalash siyosatning eng muhim masalasiga aylandi. Prezident Sh.Mirziyoyev: "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lamini va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azm-u shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz" [2], – deb ta'kidlaydi.

Aholini, shuningdek, yoshlarni ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan qonun hujjatlari dinamikasi o'rganilganda ularni to'rt guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

"Birinchi guruhga 1991–1999-yillar oralig'ida qabul qilingan qonunlarni kiritish mumkin. Bu davrda respublikada "sobiq Ittifoqdan qolgan tizimlashmagan, umumiy shaklga ega bo'lgan ijtimoiy himoya tizimini tubdan" [3] yaxshilash, siyosiy barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy himoyaning milliy xususiyatlar asosida shakllantirishga xizmat qilgan huquqiy-institutsional mexanizm shakllantirildi.

Ikkinchi guruhga 2000–2009-yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish mumkin. Bu davrda aholini manzilli ijtimoiy himoya qilish tizimi yaratildi.

“Ijtimoiy himoyaning yangi tizimi aholining turli tabaqalariga tabaqalashtirilgan yondashuvdan iboratdir. Ijtimoiy himoyaga ajratiladigan mablag‘lar haqiqatdan ham yordamga va moddiy madadga muhtoj aniq shaxsga va oilaga yo‘naltiriladi. Manzilli ijtimoiy himoya, asosan, kam ta‘minlangan va mehnatga layoqatsiz fuqarolarni qamrab oladi hamda nafaqalar, bolalarga to‘lovlarning turlari va shakllarini birxillashtirishni taqozo etadi” [4].

Uchinchi guruhga 2010–2015-yillardagi qonun hujjatlarini misol keltirish mumkin. Ushbu bosqichda aholini manzilli ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirilgan mablag‘larni maqsadli taqsimlash va qabul qilinayotgan qonunlarni yanada takomillashtirishga e‘tibor kuchaytirildi.

To‘rtinchi guruhga 2016–2021-yillarda qabul qilingan qonun hujjatlarini kiritish maqsadda muvofiq. Bu davrda O‘zbekiston “tizimli, manzilli

xarakterga ega bo‘lgan va ko‘lami bo‘yicha aholining barcha qatlamlarini har tomonlama himoyalashni tashkil etishga qaratilgan takomillashgan tizimni joriy etdi va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj ehtiyojmand qatlamlari himoyasini kafolatlash” [3] ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Xulosa. Yoshlar – jamiyatning ijtimoiy-demografik mavqei bilan ajralib turuvchi guruhi bo‘lib, ya‘ni mavjud moddiy va ma‘naviy ne‘matlarning iste‘molchisi, davlatning innovatsion siyosati natijasida yuksak intellektual salohiyatga ega bo‘lishday kuch-quvvatini ro‘yobga chiqaruvchi, kashfiyot, ixtirolar yaratuvchisi hamda erishgan yutuqlari evaziga jamiyat kelajagini ta‘minlovchi asosiy kuch sanaladi.

Yoshlar mavjud jamiyatda yaratilgan “makon” mahsuli bo‘lib, bu makonda erishilgan yutuq va kamchiliklar ularning dunyoqarashi, amaliy faoliyatida o‘z aksini topadi. Shu bois kelajak yaratuvchilarini tarbiyalash uchun jamiyatni barqarorligini ta‘minlashni yanada tezlashtirish darkor. Ushbu faoliyat respublikaning barcha fuqarolaridan yuksak mas‘uliyatni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://yuz.uz/news/akademik-akmal-saidov-yangi-ozbekiston-yoshlar-siyosatining-xalqaro-etirofi-haqida>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. 2020 йил 30 декабрь. // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>

3. 2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини ўрганиш бўйича илмий-услубий рисола. – Тошкент: Маънавият, 2017. – Б. 291–294.
4. Мустақил Ўзбекистон аҳолисининг ижтимоий ҳимояси (Муаллифлар жамоаси). – Тошкент, 2007. – Б. 12.

